



INGLIZ TILINI O'RGANISHDA O'QUVCHILARNING INNOVATSION MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH

Xojamuratov R. I.

Berdaq nomidagi QDU

“Ingliz tili va adabiyoti” kafedrasi o‘qituvchisi p.f.f.d. (PhD).

Tayanch so'zlar: o'quvchilarning innovatsion madaniyatini akmeologik yondashuv, zamonaviy axborot-kommunikatsiya va ta'lim texnologiyalari, kasbiy muloqotda qadriyatli va ijtimoiy tayyorgarlikning shakllanishi.

Ключевые слова: акмеологический подход к инновационной культуре студентов, современные информационно-коммуникационные и образовательные технологии, формирование ценностной и социальной подготовки в профессиональном общении.

Key words: acmeological approach to the innovative culture of students, modern information and communication and educational technologies, formation of value and social training in professional communication.

РЕЗЮМЕ:

Ushbu maqolada oliy ta'lim tizimida ingliz tilini o'rganishda o'quvchilarning innovatsion madaniyatini rivojlantirish jarayoni yoritilib berilgan.

РЕЗЮМЕ:

В данной статье освещен процесс развития инновационной культуры студентов при изучении английского языка в системе высшего образования.

SUMMARY:

This article highlights the process of developing students' innovative culture in studying English in the higher education system.

Oliy ta'lim tizimining jozibadorligini ta'minlash va xalqarolashuv imkoniyatlarini kengaytirish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya va ta'lim texnologiyalarining mustahkam integratsiyasini ta'minlash pirovardida o'quvchilarning kasbiy tayyorgarligini uzluksiz rivojlantirib borish uchun qo'shimcha sharoitlar yaratishga katta e'tibor qaratilmoqda. “Ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatni rag'batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish, oliy o'quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot institutlari huzurida ixtisoslashtirilgan ilmiy-eksperimental laboratoriyalar, yuqori texnologiya markazlari va texnoparklarni tashkil

imkonini beradi: o'qituvchi va talaba o'rtasidagi sub'ekt-sub'ekt munosabatlari, mavjud bilimlarga tayanish, autentik materiallarga asoslangan muammoli-loyiha topshiriqlaridan foydalanish, shuningdek, til va madaniyatlarni birgalikda o'rganish.

Shunday qilib, kasbiy muloqotni o'rganish jarayonida umummadaniy va lingvistik kompetensiyalarni rivojlantirish quyidagi tamoyillarni amalga oshirishga asoslanadi:

- o'quv jarayonida sub'ekt-sub'ekt o'zaro ta'siri tamoyili;
- o'quv jarayonining muammoli tashkil etilishi tamoyili;
- o'quv jarayonining lingvomadaniy va kasbiy yo'nalishi tamoyili.

Shuning uchun til mutaxassisliklari talabalarini kasbiy muloqotni o'rganishi davomida umummadaniy va til kompetensiyalari shakllanishi bo'yicha taqdim etilgan model shaxsiy faoliyatli, madaniyatlararo va muammoli-loyiha yondashuvlariga asoslanadi. Talabalarni kasbiy muloqotga tayyorlashga shaxsiy faoliyatli yondashish faol, ijodiy va o'quvchilarning qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan jarayon bo'lib, quyidagi imkoniyatlarni beradi:

- fanlararo aloqadorlik tamoyili;
- ona tili va madaniyatni hisobga olish tamoyili;
- ta'lim jarayoni ishtirokchilarining o'zaro faol muloqot harakatlari shaklida ishni tashkil qilish.

Ushbu yondashuv talabalarni jahon madaniyatiga jalb qilish va ularni madaniy qadriyatlar bilan tanishtirishni o'z ichiga oladi. Muammoli-loyihaviy yondashuvdan foydalanish mavjud bilim va ko'nikmalarni aktuallashtirish, ijodiy faoliyat tajribasiga ega bo'lish imkonini beradi.

Mohiyati bo'yicha murakkab ko'p bosqichli ta'lim bo'lgan innovatsion umummadaniy va til ko'nikmalarini rivojlantirish modeli bir qator tarkibiy qismlarni (maqsadli, mazmunli, tashkiliy, samarali) o'z ichiga oladi, ularning o'zaro aloqasi va yaxlitligi umummadaniy va til kompetensiyalari tomonidan amalga oshiriladigan bilim, ko'nikma, malakalarning to'plamini egallashga imkon beradi.

Innovatsion umummadaniy va lingvistik kompetensiyalarni rivojlantirishning muhim tarkibiy qismini bilim (mamlakatshunoslik, ijtimoiy-madaniy, kasbiy va ijtimoiy hamkorlik haqidagi bilim), malakalar (monologik nutq, dialogik nutq, o'qish va yozish), ko'nikmalar (natijaga erishish, moslashuvchanlik), kompetentlik (tolerantlik, faollik, ta'limning uzluksizligi) tashkil qiladi.

Tashkiliy komponent, chet tilida kasbiy muloqotni o'rgatishda umummadaniy va lingvistik kompetensiyalarni rivojlantirish modelining ishlashini ta'minlovchi omil bo'lib, o'qituvchi va o'quvchilarning faoliyati orqali belgilangan vazifalarga erishishga qaratilgan.



Samarali komponent modelning barcha tarkibiy qismlari integratsiyasi darajasini ko'rsatadi. Shuningdek, u umummadaniy va til kompetensiyalarini rivojlantirish mezonlarini, ya'ni ta'lim, faoliyatli, aksiologik-pozitsion, strategik mezonlarni aks ettiradi. Umummadaniy kompetensiyalarning alohida tarkibiy qismlari shakllanganligini aniqlashda, shuningdek, ushbu turdagi kompetensiyalar shakllanadigan o'quv jarayonining kasbiy yo'nalishini hisobga olish kerak. Shunday qilib, umummadaniy va til kompetensiyalarining tarkibiy qismlari va ularning shakllanish ko'rsatkichlari ingliz tilini o'qitishning kasbiy yo'nalishini, ya'ni chet tilida kasbiy muloqotga o'rgatishni aks ettirishi kerak.

Adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар Стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сон Фармони. // Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 6-сон, 70-модда.
2. Беспалько В. П. Слагаемые педагогической технологии. – М.: Педагогика, 1989. – 190 с.